

**TARIX FANINI O'QITISHDA KOMPYUTER  
TEXNOLOGIYALARINING O'RNI**

*Qobulova Iqboloy Abdumalikovna  
Andijon viloyati Shahrixon tumani  
17-umumi o'rta ta'lim maktabining  
Tarix fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola orqali hozirgi kunda tarix fanini o'qitishda kompyuter texnologiyalarining o'rni va ahamiyatini ko'rsatib o'tilgan

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy axborot texnologiyalari, interfaol usullar, ta'lim tizimi, innovatsiyalar, malakali pedagogik kadrlar, zamonaviy darslar.

Tarix bu kelajak poydevori, o'tgan kunlar sarhisobi va bugunnig ko'zgusidir. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov aytganlaridek: "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". Haqiqatdan ham, o'z tarixini, o'tmishini bilmaydigan xalqning buguni ham kelajagi ham mavhum bo'lib qoladi. Ya'ni u na o'tmish bilan, na bugun bilan va na kelajak bilan yashay olmaydi. Shu nuqtai nazardan olib qaraydigan bo'lsak, bashariyat tarixini, o'z yurtimiz tarixini o'rganish va o'qitish tizimini takomillashtirish ishlari bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Umuman olganda, tarix fanining ikkala yo'nalishini ham ya'ni O'zbekiston tarixini ham jahon tarixi fanlarini ham o'qitish jarayonida butun dunyo ta'lim tizimidagi kabi zamonaviy axborot texnologiyalari va kompyuter texnologiyalarining o'rni benihoya kattadir. Hozirgi davr talabidan kelib chiqadigan bo'lsak, umumi o'rta ta'limda ham, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida ham nafaqat kompyuter texnologiyalarining, balki, zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni va roli kundan-kunga oshib bormoqda. Bu esa o'z navbatida ta'lim tizimida tub burilish yasovchi eng zarur va kerakli talab va ehtiyojga aylandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Binobarin, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli barcha, jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda, shuningdek, ta'lim tizimida ham keskin o'zgarishlar yuz bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2012 - yil 28 - maydag'i "Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, bugungi kunda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida o'quv jarayoni tegishli darajada tashkil qilinishi, mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim texnologiyalariga tayangan holda o'tkazilishi lozimligi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlanishi zarurligidan kelib chiqib, tarix fanlarini maqsadli, samarali va kafolatlangan natijali tizim orqali o'qitish davr

talabidir. Xususan, bugungi kunda xorijiy davlatlarda samarali qo'llanilayotgan “Keysstudy”, “Loyiha”, hamkorlikda o'qitish texnologiyalari, “T-sxema”, “Blits-so'rov” va boshqa interfaol usullar haqida ma'lumot, hamda ularni dars jarayoniga tatbiq etish mexanizmini yoritib berishga harakat qilinmoqda.

Boshqacha qilib aytganda, zerikarli darslar o`rniga zamonaviy darslarni tashkil etishga ma'suliyat bilan yondashadigan, kasbiy bilimdon, metodik mahoratga ega, ma'suliyatli, interfaol pedagogik texnologiyani mukammal o'zlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida ta'limni tashkil eta oladigan o'qituvchilarga talab oshib bormoqda.

Dars jarayonida tarixiy materiallar va manbalardan (tarixiy hujjatlar, tarixiy ashyolar, rasmlar, xaritalar) foydalanish juda muhim va foydalidir. Bundan tashqari, tarix darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internetdan foydalanish o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga hissa qo'shibgina qolmay, ularning tarixiy tafakkur va o'rganish darajalarini oshiradi.

Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari - interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Shu tufayli pedagogik texnologiya va ularni ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba talabalarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

## **REFERENCES**

1. “Ta’limda innovatsion texnologiyalar” A. Abduqodirov, R. Ishmuhammedov: 2008.
2. Omonov, A. O. O., & Haydarov, S. A. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA FRIGIYA PODSHOLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 1(5).
3. Turg'Unboyeva, M., & Haydarov, S. A. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA “O'TTIZ YILLIK URUSH” NING AHAMIYATI. Scientific progress, 1(5).
4. Ashirova, N. X. Q., & Haydarov, S. A. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA QADIMGI HINDISTON MADANIYATINING O'RNI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 1(5).
5. Yoriquulov, A. S. O. G. L., & Haydarov, S. A. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA HIND SIVILIZATSIYASI O'RNI. Scientific progress, 1(5).
6. Rahimberdiyev, A. E. O. G. L., & Haydarov, S. A. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA ELAM DAVLATCHILIGINING O'RNI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 1(5).
7. Nomozov, M. M. O., & Haydarov, S. A. (2021). OZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR. Scientific progress, 1(5).
8. Fayziyeva, Y. I. Q., & Haydarov, S. A. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA SURIYA VA FINIKIYA PODSHOLIGI O'RGANILISHI. Scientific progress, 1(5).
9. Haydarov, S. A. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA FRANKLAR DAVLATI O'RNI VA AHAMYATI. Scientific progress, 1(5).
10. Амирқулович, Ҳ. С. (2021). ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ТАСВИРИЙ САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ. Scientific progress, 1(3).